e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/2h6vjy47

MARKAZIY OSIYONING KICHIK ETNIK GURUHLARINI O‘RGANISH MUAMMOLARI: XIX–XX ASRLARGA OID TADQIQOTLARNING TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

Seydametova Gulnara Utarbaevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, dotsent, PhD.
e-mail: g_seydametova@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0000-0002-0348-7841

Annotatsiya.
Maqola XIX asrning ikkinchi yarmidan 1980-yillarning oxirigacha bo‘lgan davrni qamrab olgan hamda Markaziy Osiyodagi kichik etnoslarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning tarixshunoslik sharhidan iborat. Unda mintaqadagi etnik ozchiliklar – Buxoro yahudiylari, O‘rta Osiyo arablari, eroniylar, uyg‘urlar, koreyslar, turkmanlar va boshqalar haqidagi ilmiy bilimlarning tadrijiy rivoji tahlil qilingan. Sovet etnografiyasining mafkuraviy qoliplarga bo‘ysundirilganligini tanqidiy tahlil qilish, urug‘-qabilachilik tuzumi “sarqitlari”ga urg‘u berish va madaniy dinamikani soddalashtirib tushunish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Metodologik cheklovlarga qaramay, ko‘rib chiqilgan ilmiy ishlar mustamlakachilik va sovet modernizatsiyasi sharoitida mintaqaning etnik manzarasini qayta tiklash imkonini beruvchi qimmatli empirik baza bo‘lib xizmat qiladi, degan xulosaga kelingan. Shuningdek, maqolada kichik etnik guruhlarning ichki tabaqalanishi va moslashuv strategiyalariga yetarlicha e’tibor qaratilmagani bilan bog‘liq tadqiqot yondashuvlaridagi jiddiy bo‘shliqlar aniqlanib, ushbu yo‘nalishdagi kelgusi izlanishlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar: kichik etnoslar, Markaziy Osiyo, tarixshunoslik, etnografiya, etnik jarayonlar.

ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ МАЛОЧИСЛЕННЫХ ЭТНИЧЕСКИХ ГРУПП ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ИСТОРИОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ XIX–XX ВЕКОВ

Сейдаметова Гульнара Утарбаевна
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, доцент, PhD.

Аннотация.
Статья представляет собой историографический обзор исследований, посвящённых изучению малочисленных этнических групп Центральной Азии и охватывающих период со второй половины XIX века до конца 1980-х годов. В ней анализируется постепенное развитие научных знаний об этнических меньшинствах региона — бухарских евреях, среднеазиатских арабах, иранцах, уйгурах, корейцах, туркменах и других группах. Особое внимание уделяется критическому анализу идеологической обусловленности советской этнографии, акцентированию внимания на «пережитках» родоплеменного строя и упрощённому пониманию культурной динамики. Сделан вывод о том, что, несмотря на методологические ограничения, рассмотренные научные труды представляют собой ценную эмпирическую базу, позволяющую реконструировать этническую картину региона в условиях колониализма и советской модернизации. Кроме того, в статье выявлены существенные пробелы в исследовательских подходах, связанные с недостаточным вниманием к внутренней дифференциации малочисленных этнических групп и их стратегиям адаптации, а также определены перспективные направления дальнейших исследований в данной области.

Ключевые слова: малочисленные этнические группы, Центральная Азия, историография, этнография, этнические процессы.

PROBLEMS IN THE STUDY OF SMALL ETHNIC GROUPS OF CENTRAL ASIA: A HISTORIOGRAPHICAL ANALYSIS OF NINETEENTH- AND TWENTIETH-CENTURY RESEARCH

Seydametova Gulnara Utarbaevna
Karakalpak State University named after Berdakh, Associate Professor, PhD.

Abstract.
The article presents a historiographical review of studies devoted to the small ethnic groups of Central Asia, covering the period from the second half of the nineteenth century to the late 1980s. It analyzes the gradual development of scholarly knowledge concerning the region’s ethnic minorities, including Bukharan Jews, Central Asian Arabs, Iranians, Uyghurs, Koreans, Turkmens, and others. Particular attention is paid to a critical examination of the ideological constraints imposed on Soviet ethnography, its emphasis

ISSN 3060-5059 (Online)

on the “remnants” of tribal social structures, and its simplified interpretation of cultural dynamics. The article concludes that, despite their methodological limitations, the reviewed scholarly works constitute a valuable empirical foundation for reconstructing the ethnic landscape of the region under colonial rule and Soviet modernization. Furthermore, the study identifies significant gaps in research approaches resulting from insufficient attention to the internal differentiation and adaptation strategies of small ethnic groups and outlines promising directions for future research in this field.

Keywords: small ethnic groups, Central Asia, historiography, ethnography, ethnic processes.

Kirish. Markaziy Osiyoning kichik etnik guruhlarini o‘rganish masalasi zamonaviy etnologiya fanining eng murakkab va serqirra yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, mintaqada bir necha asrlar davomida kechgan tarixiy, demografik va madaniy jarayonlarni har tomonlama tahlil qilishni taqozo etadi. Mazkur mavzuning dolzarbligi ushbu hudud tarixan jadal etnoslararo munosabatlar makoni bo‘lgani, u yerda asrlar osha turli xalqlarning o‘ziga xos hamjihatlikda yashash tamoyillari shakllangani, shuningdek, sovet va postsovet davrlarida aholining etnik tarkibida tub o‘zgarishlar ro‘y bergani bilan izohlanadi.Markaziy Osiyoning kichik etnoslarini o‘rganish tarixshunosligi uzoq va murakkab tarixga ega bo‘lib, u XIX asrning ikkinchi yarmidagi Rossiya mustamlakachilik ekspansiyasi davriga borib taqaladi. Mintaqaning etnik tarkibi haqidagi dastlabki tizimli ma’lumotlar imperiya ma’muriyatining ma’muriy-statistik tadbirlari doirasida to‘plangan. Ushbu tadbirlar amaliy manfaatlarga yo‘naltirilgan bo‘lishiga qaramay, keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun poydevor yaratdi. Sovet davriga kelib, ilmiy-tadqiqot muassasalari tarmog‘ining tashkil etilishi va keng ko‘lamli kompleks ekspeditsiyalarning o‘tkazilishi tufayli kichik etnik guruhlarni o‘rganish rejali hamda institutsional tus oldi.Mintaqada istiqomat qiluvchi xalqlar to‘g‘risidagi eng tizimli statistik ma’lumotlar Turkiston o‘lkasi statistikasi uchun materiallarda keltirilgan. Ushbu asar Zarafshon okrugi bo‘yicha 1877-yilgi statistik hisobotdan iborat. Hisobotda rasmiy hujjatlar, etnografik materiallar va iqtisodiy tahlillar o‘rin olgan bo‘lib, bu o‘sha davrdagi mustamlaka ma’muriy ilm-fanining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi [21]. Asosiy e’tibor okrugning tog‘li tumanlari — Panjakent va Urgut shaharlari aholisi statistikasiga qaratilgan. Keltirilgan ma’lumotlar bu yerda yashovchi tojiklar, hindlar, yahudiylar va pravoslavlarning demografik ko‘rsatkichlari (soni, jinsi, yoshi) hamda etnik-konfessional tarkibini qamrab oladi [21, c. 334–335].

Rus dehqonlarining Turkiston o‘lkasiga ko‘chirilishi masalalari A. Kazakovning maqolasida yoritilgan. Aslida, bu ocherk bo‘lib, unda muallif ko‘chib kelganlar hayotining maishiy jihatlariga batafsil to‘xtalib o‘tadi. U ko‘pincha yerto‘la yoki xom g‘ishtdan tiklangan uylardan iborat bo‘lgan dastlabki turar joylarning tuzilishini tasvirlaydi. Shuningdek, rus dehqonlarining mahalliy aholi — qirg‘izlar bilan o‘zaro munosabatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Madaniyat va dindagi farqlarga qaramay, bu aloqalar o‘zaro manfaatli ayirboshlash hamda savdo-sotiq asosiga qurilgani, bu esa yangi ko‘chib kelganlarning tezroq moslashishiga yordam bergani ta’kidlanadi [15, c. 148–161].

A. A. Polovsevning hisoboti 1896–1897-yillarda Turkiston o‘lkasiga qilingan xizmat safari yakunlari bo‘yicha tuzilgan hujjatdir. Uning maqsadi o‘sha paytga kelib keng quloch yozgan, biroq deyarli nazoratsiz tus olgan ko‘chib kelish jarayonining holati to‘g‘risida xolis ma’lumotlar to‘plashdan iborat edi. Hisobotda asosiy e’tibor dehqonlarning imperiya ichki guberniyalaridan Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlari yerlariga stixiyali ravishda ko‘chib kelishining amaliy oqibatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Polovsev ko‘chib kelganlar sonining umumiy ko‘rsatkichlaridan ko‘ra ko‘proq ularning o‘rnashishi, yerdan foydalanishi hamda mahalliy o‘troq va ko‘chmanchi aholi bilan o‘zaro munosabatlarining aniq shart-sharoitlarini qayd etib borgan [26].

Turkiston o‘lkasidagi uralliklarga bag‘ishlangan mazkur maqola XX asr boshlariga xos publitsistikaning yorqin namunasi bo‘lib, unda tarixiy tadqiqot siyosiy targ‘ibot bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Umuman olganda, maqola Ural kazaklarining ruhiyati va mifologiyasini aks ettirgani bois qimmatli hujjat hisoblanadi. Biroq tahliliy manba sifatida u o‘ta biryoqlamadir, zero, ushbu ishdan ko‘zlangan maqsad — “isyonchilar”ni oqlashdan iborat [28, c. 1–35].

“O‘rta Osiyo arablari tarixiga doir” maqolasi O‘rta Osiyo hududida istiqomat qilgan arab aholisini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda hujjatli dalillar, xususan, Buxoro arxivi materiallari o‘z aksini topgan. Tadqiqotda XVI va XIX asrlarda arab jamoalariga berilgan yorliq hamda farmonlar matni, masalan, Mir Haydar nomi bilan bog‘liq inoyatnomalar keltiriladi va tahlil qilinadi. Ushbu hujjatlarga asoslanib, muallif arablar bu davrda muayyan soliq imtiyozlaridan foydalangan imtiyozli tabaqa hisoblangan, biroq asta-sekin etnik o‘zligi va tilini yo‘qotib borgan, degan xulosaga keladi [5, c. 111–126].

N. A. Kislyakovning “Yazgulemliklar” nomli ishi G‘arbiy Pomirning baland tog‘li Yazgulem daryosi vodiysida istiqomat qiluvchi kam sonli etnik guruhlardan birining tavsifiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda asosiy e’tibor tashqi dunyodan butunlay uzilib qolgan sharoitda shakllangan moddiy madaniyat, xo‘jalik yuritish tarzi va ijtimoiy munosabatlarni har tomonlama yoritishga qaratilgan. N. A. Kislyakov mazkur guruhning o‘ziga xosligini alohida ta’kidlaydi: ular qo‘shni tojik va vaxon jamoalarining ta’siriga qaramay, tog‘li mintaqaning qadimiy dehqonchilik va chorvachilik an’analariga xos bo‘lgan bir qator arxaik xususiyatlarni saqlab qolgan [16, c. 361–372].

K. L. Zadixinaning QQASSR Qo‘ng‘irot tumani o‘zbeklariga bag‘ishlangan maqolasida ularning Janubiy Orolbo‘yi mintaqasida paydo bo‘lish tarixi, urug‘-qabila tarkibi hamda XVI–XIX asrlardagi siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni tahlil qilingan. Muallif manbalar sharhini keltirar ekan, mintaqadagi o‘zbeklar haqidagi ilk qaydlar XVI asr boshlariga oid ekanligini ko‘rsatib o‘tadi [11, c. 319–429]. XVII asr boshlariga kelib, Orolbo‘yi va Amudaryo deltasining o‘zbek aholisi gavjumlashgan hudud sifatidagi ahamiyati ortib borgani kuzatiladi. Natijada XVII asrning birinchi yarmida Janubiy Orolbo‘yi hududida “Orol egaligi” nomi bilan tarixga kirgan davlat tuzilmasi vujudga keladi. Mazkur mulkning tashkil topishi 1625-yilga to‘g‘ri keladi [12, 324–325].

Amudaryo deltasi o‘zbeklarini o‘rganishga qo‘shilgan yana bir muhim hissa — Qoraqalpog‘istonning Qipchoq tumani (hozirgi Amudaryo tumani) o‘zbek aholisining madaniyati va turmush tarzining har tomonlama etnografik tavsifini o‘zida aks ettirgan tadqiqotdir. Mazkur asar ushbu etnik guruhning an’anaviy madaniyati va kundalik hayotini kompleks o‘rganishni qamrab oladi [10, c. 761–808]. Yozgulemlar etnik guruhi L. F. Monogarovaning tadqiqot obyektiga aylangan. Asarda yozgulemlarning xo‘jalik yuritish tarzi, taqvimiy marosimlari va oilaviy munosabatlarining eng mayda tafsilotlari ham qayd etilgan bo‘lib, bu ushbu kam sonli Pomir xalqining an’anaviy madaniyatini qayta tiklashda muhim tadqiqot hisoblanadi. Biroq tadqiqot marksistik paradigma hukmronligidan xoli emas. Bu holat urug‘chilik tuzumi “sarqitlari”ga haddan tashqari urg‘u berishda va islom dinini “feodal meros” sifatida jo‘n talqin qilishda namoyon bo‘ladi [23, c. 3–94].

R. Sh. Jarilg‘asinovaning maqolasi 1950–1960-yillarda Sovet Ittifoqida yuz bergan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar kontekstida koreyslarning etnografik tavsifini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchi moddiy madaniyatni shunchaki qayd etish bilan cheklanib qolmay, sovet modernizatsiyasi ta’sirida koreyslarning an’anaviy turmush tarzi qanday murakkab o‘zgarishlar jarayonini boshdan kechirganini ham ko‘rsatib beradi. Kolxoz ishlab chiqarishi sharoitida koreyslar xo‘jalik faoliyatining rivojlanishi tadqiqotning asosiy mavzusini tashkil etadi. Jarilg‘asinova “Raushan” sovxozi iqtisodiyotining asosiga aylangan sholichilik va paxtachilik masalalariga batafsil to‘xtalib o‘tadi. Ta’kidlanishicha, agrotexnik yangiliklar joriy etilganiga qaramay, koreyslar Qoraqalpog‘istonning qurg‘oqchil iqlimi sharoitida g‘oyat samarali bo‘lib chiqqan bir qator o‘ziga xos dehqonchilik usullarini saqlab qolishgan. Bu esa ularning madaniyati yuqori moslashuvchanlik xususiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi [6, c. 54–63].

Koreyslar mavzusiga bag‘ishlangan yana bir maqola muallifi Y. V. Ionova bo‘lib, mazkur maqolada O‘rta Osiyo va Qozog‘istonga ko‘chirilgan koreys diasporasi hayoti haqidagi keng qamrovli etnografik tadqiqotlar bayon etilgan. Etnografik ocherkda turar joylarning tasviri alohida qiziqish uyg‘otadi. Y. V. Ionovaning ta’kidlashicha, O‘rta Osiyoda yashovchi koreyslar rus, o‘zbek va koreys me’morchiligi elementlarini uyg‘unlashtirgan holda o‘z an’anaviy uylarini mahalliy sharoitga moslashtirgan. Shu bilan birga, issiq pol, o‘ziga xos tarh hamda bo‘yralar va past mebellar bilan jihozlangan ichki bezaklar kabi xususiyatlar saqlanib qolgan [13, c. 23–34].

Turkman tadqiqotchisi K. Atayevning maqolasi turkmanlar, xususan, ularda ilgari mavjud bo‘lgan muqaddas (avliyo) qabilalarning avlodlari hamda ularning urug‘-qabilaviy tarkibiga bag‘ishlangan. Tadqiqotchi shixlarning afsonaviy rivoyatlarini keltiradi, shuningdek, shixlarni “turkmanlashgan” arablarning avlodlari deb hisoblovchi ayrim olimlarning fikrlarini ko‘rib chiqadi [2, c. 77].

I. Mullajonovning tadqiqotida 1926, 1939 va 1959-yillardagi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga tayangan holda, ittifoqdosh respublikalar (O‘zbekiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Qozog‘iston SSR) aholisi sonining o‘zgarish dinamikasi tahlil qilingan. Shuningdek, unda ayrim viloyat va hududlar, jumladan, Qoraqalpog‘iston ASSR bo‘yicha ham statistik ma’lumotlar keltirilgan. Asarda shahar aholisining ko‘payishi va etnik tarkibdagi o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratilib, ushbu tarixiy davrga xos bo‘lgan yuqori tabiiy o‘sish hamda migratsiya oqimlari alohida ta’kidlanadi [24, c. 74–86]. Bundan tashqari, qishloq aholisining shaharlarga ommaviy ko‘chishiga va jamiyatning kasbiy tarkibi o‘zgarishiga olib kelgan sanoatlashtirish hamda kollektivlashtirish jarayonlariga ham keng o‘rin berilgan. Matnda O‘rta Osiyo respublikalari va viloyatlari kesimida shahar aholisining o‘sishi hamda milliy tarkibning o‘zgarishini aks ettiruvchi ko‘plab jadvallar keltirilgan [24, c. 90–117].

G. P. Vasilyevaning maqolasi Markaziy Osiyodagi etnik ozchiliklarni o‘rganishda foydali manba hisoblanadi [3, c. 3–17]. Unda tarixiy burilish pallasida, ya’ni sovet turmush tarzini faol birxillashtirish va madaniy standartlashtirish davrida mintaqadagi etnik manzara holati aks ettirilgan. G. P. Vasilyeva Shimoliy Turkmanistonni mahalliy turkman aholisi o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq va ruslar bilan yonma-yon yashaydigan qizg‘in millatlararo muloqot hududi sifatida ko‘rib chiqadi. Ta’kidlanishicha, millatlararo nikohlar, jumladan, turkmanlar va o‘zbeklar o‘rtasidagi nikohlar, ayniqsa, aralash aholi istiqomat qiladigan hududlarda tobora keng tarqalgan [3, c. 13–15].

F. D. Lyushkevichning maqolasi Buxoroda istiqomat qiluvchi alohida “ironiy” etnografik guruhini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, O‘rta Osiyo tarixchilarining Eron va Afg‘onistonning shimoliy viloyatlaridan O‘rta Osiyoga majburan ko‘chirilishlar haqidagi ilk ma’lumotlari XV–XVI asrlarga taalluqlidir [19, c. 202–212]. Mazkur ishda “ironiy” va “fors” atamalarining kelib chiqishi batafsil tahlil qilingan hamda ularning joylashuvi, urf-odatlari va boshqa jihatlari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan [20, 36–71].

Turg‘un Fayziyevning Buxoro xonligidagi qul savdosiga bag‘ishlangan asari, birinchi navbatda, mintaqaga forsiyzabon aholining kirib kelishi va o‘troqlashuviga xizmat qilgan ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni o‘rganishda muhim manba sifatida qimmatlidir. Tadqiqotchi “jonli tovar” keltiriladigan yo‘nalishlarni, xususan, bosqinlar paytida asir olish, Eron bilan urushlar hamda turkman qabilalaridan tutqunlarni sotib olish holatlarini batafsil tasvirlaydi. Bu nafaqat eroniylarning kirib kelish yo‘llarini, balki xonlikdagi shahar va qishloq tumanlarining etnik tarkibiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan ushbu jarayon ko‘lamini ham kuzatish imkonini beradi [29].

Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l tumanida istiqomat qiluvchi ota turkmanlari haqidagi ma’lumotlar, ovul nomlarining tahlili hamda moddiy madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari N. P. Lobachevaning maqolasida keltirilgan. Xususan, muallif ularning milliy ruhdagi liboslar kiyishini, ayollar esa uchi bilan og‘iz to‘siladigan yashmoq ro‘molini o‘rashini ta’kidlab o‘tadi [18, c. 28–29].

T. A. Jdankoning maqolasi tadqiqotimiz uchun muayyan qiziqish uyg‘otadi. Unda tadqiqotchi “qabila” va “elat” tushunchalarini O‘rta Osiyo sharoiti misolida tahlil qiladi. Shuningdek, boy faktik materiallar (qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, o‘zbek va tojiklar etnografiyasi) asosida XIX asrga kelib mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli darajalari yonma-yon mavjud bo‘lganini, bu esa arxaik urug‘-qabilachilik tuzilmalaridan tortib, ilk feodal davlat tuzilmalarigacha (Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari) bo‘lgan etnik uyushmalarning xilma-xil shakllarini yuzaga

keltirganini ko‘rsatib beradi [9, c. 10–26].

1977-yilda e’lon qilingan maqolasida R. Sh. Jarilg‘asinova koreyslar mavzusiga qayta murojaat qiladi. Maqolada etnografik tadqiqot “millatlarning gullab-yashnashi va yaqinlashuvi” mafkuraviy doktrinasi bilan chambarchas bog‘langan [1][7, c. 59–79]. Tadqiqotchi keng ko‘lamli statistik va dala materiallaridan foydalanib, koreyslarning sovet jamiyatiga integratsiyalashuvini ko‘rsatib berishga intiladi. Biroq metodologik yondashuv ko‘p jihatdan milliy siyosat yutuqlarini namoyish etish vazifasiga bo‘ysundirilgan bo‘lib, bu holat madaniy assimilyatsiya va etnik o‘zlikni saqlab qolish jarayonlarining ma’lum darajada biryoqlama yoritilishiga olib keladi.

Maqolada turar joyning tavsifi keltirilgan bo‘lib, qurilishda mahalliy an’anaviy usul va materiallardan foydalanilgani, shuningdek, xonadonning isitish tizimi — kudur yoki ondol (isitiladigan pol) qurishda ham an’analar saqlanib qolgani ta’kidlangan. Kudurning tuzilishi quyidagicha: “Xona poli sathidan pastda joylashgan pechning o‘txonasidan uch yoki beshta asosiy kanal tortilgan bo‘lib, ulardan mayda quvurlar yoki shunchaki tosh terma tubidagi ariqchalar tarqaladi. Kanal va quvurlar bo‘ylab o‘choqning olovi hamda tutuni yoyilib, polni isitadi. Xonaning orqa devori oldida barcha quvurlar tutun chiqarish kanaliga birlashadi” [7, c. 61]. Bundan tashqari, ushbu ilmiy ishda koreys milliy liboslari, taomlari va an’anaviy turmush tarzining boshqa unsurlari haqida ham ma’lumotlar berilgan.

O‘rta Osiyo va Qozog‘istondagi etnik jarayonlar hamda milliy guruhlarga bag‘ishlangan to‘plam tadqiqotimizga bevosita aloqadordir [30]. Mazkur to‘plamdan o‘rin olgan va tadqiqotimiz mavzusiga eng yaqin bo‘lgan maqolalarni alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.

Y. R. Vinnikovning maqolasi 1926–1970-yillardagi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari va etnografik dala tadqiqotlari asosida O‘rta Osiyodagi etnik jarayonlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Mazkur ishning ijobiy jihati respublikalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muvaffaqiyatlarni yaqqol namoyon etuvchi keng qamrovli statistik ma’lumotlardir: sanoat ishlab chiqarishining o‘nlab barobar o‘sishi, urbanizatsiya va ayollarning ishlab chiqarishga jalb etilishi shular jumlasidandir. Mahalliy millatlarning jipslashuvi, kichik etnografik guruhlarning (turklar, quramalar, qipchoqlar, arablar, eroniylar, lo‘lilar, belujlar, kurdlar) yirik xalqlarga qo‘shilib ketish jarayonlari alohida yoritib berilgan bo‘lib, bu urug‘-qabilaviy tafovutlarning yo‘qolib borishi va yagona milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usining shakllanishidan dalolat beradi [4, c. 12–13; 24–26].

Biroq maqola o‘ta mafkuraviy ruhda yozilgan bo‘lib, bu uning jiddiy kamchiligidir. Muallif barcha etnik jarayonlarni tanqidiy tahlilga yo‘l qo‘ymagan holda, faqatgina “lenincha milliy siyosat” va “sotsializm tantanasi” nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi. Kichik xalqlarning assimilyatsiya bo‘lishi shak-shubhasiz ilg‘or hodisa sifatida talqin qilinib, madaniy xilma-xillikka yetishi mumkin bo‘lgan zarar esa e’tibordan chetda qoldiriladi.

R. Sh. Jarilg‘asinova ilmiy merosida koreys mavzusi yetakchi o‘rinlardan birini egallagan. Yuqorida tilga olingan to‘plamda tadqiqotchi XX asrning ikkinchi yarmida koreyslarning Markaziy Osiyoda zich yashagan hududlarini qayd etadi. Bular O‘zbekistonning Toshkent, Sirdaryo, Farg‘ona viloyatlari, shuningdek, Qozog‘istonning Qizilo‘rda, Taldiqo‘rg‘on, Chimkent, Jambul hamda Olmaota viloyatlaridir. Asarda madaniy va etnik aloqalar natijasida kiyim-kechak hamda ovqatlanish tarziga ta’sir ko‘rsatgan o‘zgarishlar batafsil tahlil qilingan, ma’naviy hayotda esa ikki va uch tillilik, shuningdek, rus aholisining ta’siri ostida ruscha ismlarga o‘tish holatlari qayd etilgan [8, c. 43–73].

Markaziy Osiyo uyg‘urlariga bag‘ishlangan maqolada ularning hozirgi geografik joylashuvi tavsifi hamda XVIII–XIX asrlarda Shinjondagi beqaror siyosiy vaziyat tufayli Markaziy Osiyo hududiga ko‘chib o‘tish sabablari keltirilgan [14, c. 75–76].

Bundan tashqari, to‘plamda Markaziy Osiyo xalqlari, ularning etnik rivojlanishi hamda milliy o‘zlikni anglashning saqlanib qolishi va o‘zgarishlariga bag‘ishlangan bir qator maqolalar ham o‘rin olgan [23, c. 125–335; 25, c. 167–187; 19, c. 202–212; 1, c. 213–229].

Ye. I. Korotinning maqolasi 1874-yilgi “Harbiy xizmat to‘g‘risidagi nizom” joriy etilgandan keyingi Ural kazaklarining fojiali taqdiriga bag‘ishlangan tarixiy tadqiqotdir. Maqolada islohot loyihasi muhokamasidan boshlab, Turkiston o‘lkasiga surgun qilingan kazaklarning ko‘p yillik qarshilik ko‘rsatishigacha bo‘lgan voqealar xronologiyasini tiklashga harakat qilinadi [17, c. 58–61].

A. M. Reshetovning maqolasi Tojikiston uyg‘urlariga bag‘ishlangan. Muallif so‘nggi asrlar davomida tojiklar muhitida qashqarliklar (O‘rta Osiyoda uyg‘urlar an’anaviy ravishda shunday atalgan) yashab kelganligi haqida ishonchli dalillar keltiradi. XVIII asrning ikkinchi yarmidayoq Konibodomda Qashqardan chiqqan kishilarning “chakari qashqarixo” (qashqarliklarning boshi berk ko‘chasi) nomini olgan ixcham manzilgohi mavjud bo‘lgan. Kuchli tojiklashuvga (assimilyatsiyaga) uchragan ularning avlodlari misgarlik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar. 1880-yilgi statistik ma’lumotlarda Xo‘jandda 50 nafar qashqarlik qayd etilgan bo‘lsa, Leninoboddagi (hozirgi Xo‘jand) “Guzari oxun” mikrotoponimi haligacha uyg‘urlarning sobiq manzilgohiga ishora qiladi; zero, erkaklar ismiga ushbu so‘zni qo‘shib aytish odatiga ko‘ra, ularni oxunlar deb atashgan. XX asr boshlarida Xinoboddagi dahalardan birini Qashqardan ko‘chib kelgan qashqarliklar tashkil etgan [27, c. 194–201].

Markaziy Osiyodagi kichik etnoslarni o‘rganish tarixshunosligi yuzasidan olib borilgan tahlillar ham ilmiy bilimlar tadriji, ham ko‘rib chiqilgan har bir bosqichning metodologik xususiyatlariga oid bir qator umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish imkonini beradi. Avvalo, shuni ta’kidlash joizki, mintaqadagi etnik ozchiliklarni o‘rganish jarayoni mustamlaka ma’muriyatining uzuq-yuluq statistik tavsiflaridan tortib, kompleks dala materiallari hamda yozma manbalarning chuqur tahliliga asoslangan tizimli etnografik tadqiqotlargacha bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tdi.

Shunday qilib, o‘rganilayotgan davrda ham aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha statistik ma’lumotlarni, ham alohida guruhlarning batafsil etnografik tavsifini o‘z ichiga olgan keng empirik bazaning yaratilishini tahlil qilingan tarixshunoslikning asosiy yutug‘i sifatida baholash lozim. Madaniyati hamda ijtimoiy tuzilishi murakkab assimilyatsiya va o‘zlikni saqlab qolish jarayonlari doirasida tadqiq etilgan etnik guruhlarga oid materiallar alohida ahamiyatga ega. Shu

ISSN 3060-5059 (Online)

bilan birga, ko‘rib chiqilgan asarlarning tanqidiy tahlili mafkuraviy bosim va tadqiqot rakursining cheklanganligi bilan bog‘liq jiddiy bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyodagi kichik etnik guruhlar tarixshunosligi tabiati va metodologiyasi bo‘yicha turli xil bo‘lgan ko‘p qatlamli tadqiqotlar majmuasidir va u zamonaviy etnologiya nuqtayi nazaridan tanqidiy qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Mazkur masalani kelgusida o‘rganish nafaqat arxiv va dala materiallariga murojaat qilishni, balki avvalgi bosqichlarning mafkuraviy qoliplaridan xalos bo‘lish hamda etnik guruhlar va atrof-muhit o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir mexanizmlarini aniqlash imkonini beruvchi yangi tahliliy yondashuvlarni ishlab chiqishni ham taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Амирьянц И. А. Этническое развитие среднеазиатских арабов. – С. 213–229.
2. Атаев К. Некоторые данные по этнографии туркмен шихов // Труды Института истории, археологии и этнографии АН Туркменской ССР. – Ашхабад, 1963. – Т. VII. – С. 77.
3. Васильева Г. П. Современные этнические процессы в северном Туркменистане // Советская этнография. – 1968. – № 1. – С. 3–17.
4. Винников Я. Р. Национальные и этнографические группы Средней Азии по данным этнической статистики // Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1980. – С. 12–13, 24–26.
5. Волин С. Л. К истории среднеазиатских арабов // Труды Института востоковедения. – Москва; Ленинград, 1941. – Вып. XXXVI. – С. 111–126.
6. Джарылгасинова Р. Ш. Культура и быт корейцев совхоза «Раушан» Кунградского района Кара-Калпакской АССР // Краткие сообщения Института этнографии. – Москва, 1960. – Вып. XXXV. – С. 54–63.
7. Джарылгасинова Р. Ш. Новое в культуре и быту корейцев Средней Азии и Казахстана (на примере сельского населения) // Советская этнография. – 1977. – № 6. – С. 59–79.
8. Джарылгасинова Р. Ш. Основные тенденции этнических процессов у корейцев Средней Азии и Казахстана // Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1980. – С. 43–73.
9. Жданко Т. А. Специфика этнических общностей в Средней Азии и Казахстане (XIX – начало XX в.) // Расы и народы: современные этнические и расовые проблемы. – Москва, 1974. – Вып. 4. – С. 10–26.
10. Задыхина К. Л. Культура и быт узбеков Кипчакского района Кара-Калпакской АССР // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1958. – Т. II. – С. 761–808.
11. Задыхина К. Л. Узбеки дельты Аму-Дарьи // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – Москва, 1952. – Т. I. – С. 319–429.
12. Задыхина К. Л. Узбеки дельты Аму-Дарьи // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – Москва, 1952. – Т. I. – С. 324–325.
13. Ионова Ю. В. У корейцев Средней Азии // Краткие сообщения Института этнографии. – Москва, 1963. – Вып. XXXVIII. – С. 23–34.
14. Исхаков Г. М., Решетов А. М., Седловская А. М. Современные этнические процессы у советских уйгуров // Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1980. – С. 75–76.
15. Казаков А. Переселенцы в Туркестанском крае // Родина. – 1880. – С. 148–161.
16. Кисляков Н. А. Язгулемцы (этнографический очерк) // Известия Всесоюзного географического общества. – 1948. – Т. 80, вып. 4. – Июль–август. – С. 361–372.
17. Коротин Е. И. Уральские казаки в Средней Азии // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. – 1981. – № 2. – С. 58–61.
18. Лобачева Н. П. Очерк культуры и быта колхозников – освоителей Кызылкумов (по материалам колхоза им. М. Горького Турткульского района ККАССР) // Занятия и быт народов Средней Азии. Среднеазиатский этнографический сборник. – Ленинград, 1971. – Вып. III. – С. 28–29.
19. Люшкевич Ф. Д. Некоторые особенности этнического развития группы ирони в Узбекистане. – С. 202–212.
20. Люшкевич Ф. Д. Этнографическая группа ирони // Занятия и быт народов Средней Азии. Среднеазиатский этнографический сборник. – Ленинград, 1971. – Вып. III. – С. 36–71.
21. Материалы для статистики Туркестанского края / под ред. Н. А. Маева. – Санкт-Петербург, 1879. – Вып. V. – С. 334–335.
22. Моногарова Л. Ф. Материалы по этнографии язгулемцев // Среднеазиатский этнографический сборник. – Москва, 1959. – Вып. II. – С. 3–94.
23. Моногарова Л. Ф. Эволюция национального самосознания припамирских народностей. – С. 125–135.
24. Мулляджанов И. Р. Народонаселение Узбекской ССР (социально-экономический очерк). – Ташкент, 1967. – С. 90–117.
25. Назаров Х. Х. Современное этническое развитие среднеазиатских цыган. – С. 167–187.
26. Отчет чиновника особых поручений при Министерстве внутренних дел А. А. Половцева, командированного в 1896–1897 гг. для собрания сведений о положении переселенческого дела в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург, 1898.
27. Решетов А. М. Уйгуры в Таджикистане // Этническая история и традиционная культура народов Средней Азии и Казахстана. – Нукус, 1989. – С. 194–201.
28. Сандр. Уральцы в Туркестанском крае // Русское богатство. – 1905. – № 6. – С. 1–35.
29. Fayziyev Turg‘un. Buxoro xonligida qul savdosi. – Toshkent, 1970.
30. Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1980.